O'zbekiston iqtisodiyotining hududiy rivojlanishini tartibga solishda, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida investitsion siyosatni to'g'ri va samarali amalga oshirishda A.Sh.Bekmurodov ^[7], Sh.I.Mustafaqulov ^[8], S.A.Abduraximova ^[9], B.B.Valiyevlar ^[10] munosib hissa qo'shganlar. Ushbu iqtisodchi olimlar tomonidan investitsiyalarning sohadagi intensiv iqtisodiy o'sishga investitsion jozibadorlik tasirini aniqlash, erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish, investitsiya faoliyatini boshqarish tizimida moliyaviy hisobot va uning tahlilini takomillashtirish bilan bog'liq yo'nalishlar yoritilgan.

METODOLOGIYA

Zamonaviy sharoitda hududlar va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun hududiy iqtisodiy siyosatni strategik yo'nalishlarini belgilash, davlat tomonidan tartibga solishning yangi shakllari, usullari va vositalarini ishlab chiqishda yangi yondashuvlar zarur bo'lmoqda. Ekonometrik modellashtirish qishloq xo'jaligi sektorining barqaror rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish instrumentlaridan hisobiga o'rta mudдатli rivojlanish tendensiyalarini prognozlashtirish imkoniyatlarini yaratadi. Shuning uchun ham ushbu ilmiy maqolapda Kobb-Duglasning ishlab chiqarish funksiyasiga asoslangan holda Qashqadaryo viloyati misolida qishloq xo'jaligida yalpi qo'shgilgan qiymatning o'sish sur'atiga kapital resurslar, mehnat resurslari omillarining ta'sirini ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanilgan holda o'rganilgan.

Hozirgi vaqtda barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy omili boshqaruvning barcha darajalarida boshqaruv faoliyatining sifati va samaradorligi hisoblanadi. Shunday qilib, yapon mutaxassislarining fikriga ko'ra, allaqachon 80-yillarning o'rtalarida zamonaviy ishlab chiqarishdagi yo'qotishlar 80-85% ga boshqaruv tizimining sifati va faqat 15-20% - bevosita ijrochilarga bog'liq. Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv faoliyatining sifati, albatta, asosiy yelement sifatida mulkdorlar yoki menejerlarning tadbirkorlik qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi uchun ishlab chiqarishni boshqarishning eng muhim vazifalari qatoriga quyidagilar kiradi:

- moddiy resurslardan oqilona foydalanish;
- ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish;
- yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishish;
- mehnat unumdorligini oshirish;
- ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;
- ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirish va bozorni keng iste'molchilar uchun zaruriy yuqori sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish maqsadida qishloq xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichlarini hisob-kitoblar va qiyosiy tahlil qilish vositasida boshqarish usullarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

ILMIY TADQIQOT USULLARI

Investitsion faoliyat uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan masalalardan biri sifatida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi ko'rsatkichlari to'g'risida iqtisodiy adabiyotda qizg'in muhokamalar mavjuddir. Iqtisodiy adabiyotlarda mezon - samaradorlik kategoriyasining mohiyati va unga xos bo'lgan ko'rsatkichlarning yagona talqini ham yetarli tizimlashtirilmagan. Masalan, K.P. Obolenskiy investitsion jozibadorlik nuqtayi nazardan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligiga "qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligi mezonlari... yalpi ishlab chiqarishning yashash va moddiylashtirilgan mehnat xarajatlariga nisbati bilan tavsiflanadi..."¹ - deya tavsiflaydi. Ushbu masalada, N.I. Xolod va Ye.R. Vitun "... hayotiy xarajatlarni

1 Оболенский К.П. Экономическая эффективность сельскохозяйственного производства. Теория и практика. - М.: Экономика, -1974. -192 с.



minimallashtirish va moddiy mehnatga sarflash paytida sof ishlab chiqarishning o'sishi (yalpi daromad)² – deb ta'riflaydi. Professor L.F. Dogilning ta'kidlashicha, iqtisodiy samaradorlik mezonlari yuqori sifat darajasi va mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlash bilan kapital (resurslar) xarajatlari birligidan foydani maksimal darajaga ko'tarishdir³ – deb tavsiflaydi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiy samaradorlik to'g'risida ko'plab fikrlar bildirilgan, lekin investitsion faollikni oshirish uchun shart sharoit yaratuvchi qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishning determinantlariga alohida urg'u L.F. Dogilning yondashuvlarida yoritilgan bo'lib, foydani dinamik maksimallashtirish orqali erishiladigan samaradorlik tarmoqqa investitsiyalarni jalb qilishdagi asosiy omil hisoblanadi.

Iqtisodchilarning fikricha, qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatiga umumlashtirilgan baho foydaning ishlab chiqarish xarajatlarga nisbati bilan beriladi. Keyinchalik samaradorlikning umumlashtiruvchi ko'rsatkichi rentabellik darajasida ifodalanadi. Bu pozitsiyani G.I. Makin, agrosanoat ishlab chiqarish sharoitlarining iqtisodiy samaradorligining mezoni foyda yana bir bor taqdiqlaydi. Asosiy umumlashtiruvchi ko'rsatkich sifatida foyda miqdorini ham, ishlab chiqarish xarajatlari darajasini ham aks ettiruvchi rentabellik ko'rib chiqilishi tabiiy hol hisoblanadi.

Lekin ushbu samaradorlik mezonlari sof foyda yoki xo'jalik faoliyatining sof moliyaviy natijalariga bog'langan holda tizimlashtirilgan. Hududlar iqtisodiyoti qishloq xo'jaligi tarmog'i kesimida investitsion jozibadorlikni asosiy mezonlaridan biri tarmoqdagi ishbilarmon faollik ko'rsatkichlari ham hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar tizimi iqtisodiy resurslarni tarmoqda dinamik ravishda ko'paytirish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishning multiplikativ samarali ham hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Samaradorlikning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan resurs qaytimi ko'rsatkichi ishlab chiqarish samaradorligini baholashning xususiy ko'rsatkichlarini o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu xususiy ko'rsatkichlar material sig'imi, kapital sig'imi, mehnat sig'imi, fond sig'imi kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga olib ular qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining texnologik rivojlanishi natijasidagi intensivlashuv darajasini ifodalaydi.

Ishlab chiqarish-iqtisodiy omillar qishloq xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishning to'liqligi va samaradorligi hamda faoliyatning yakuniy natijalarini belgilaydi.

Ushbu baholash alohida firmalar yoki tarmoqlar darajasida ham, Kobb-Duglas multiplikativ modelidan foydalangan holda hududlar iqtisodiyotining qishloq xo'jaligi sektori darajasida ham amalga oshirilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligidagi mavjud ishlab chiqarish funksiyasi - bu ishlab chiqarish hajmining ishlab chiqarishga sarflangan resurslar hajmiga bog'liqligini tavsiflovchi matematik model quyida keltiriladi:

$$Y = f(x_1, x_2, x_3 \dots x_n) \quad (1)$$

Bu yerda,

Y – qishloq xo'jaligida ishlab chiqariladigan mahsulotlar;

x_i ($i = 1, 2, \dots, n$) – resurslar.

Bir hil mahsulot ishlab chiqaruvchi alohida korxonalar uchun ishlab chiqarish funksiyasi ishlab chiqarish hajmini mehnat faoliyatining har xil turlari, har xil turdagi xom ashyo, butlovchi qismlar, energiya va asosiy kapital uchun ish vaqtining xarajatlari bilan bog'laydi. Ushbu turdagi ishlab chiqarish funksiyasi qishloq xo'jaligi korxonalarining hozirgi texnologik qurollanganligini tavsiflaydi.

Bir hil mahsulot yetishtiruvchi alohida qishloq xo'jaligi korxonalari uchun ishlab chiqarish funksiyasi ishlab chiqarish hajmini mehnat faoliyatining har xil turlari, har xil turdagi xom ashyo, butlovchi qismlar, energiya va asosiy kapital uchun ish vaqtining xarajatlari bilan bog'laydi. Ushbu turdagi ishlab chiqarish funksiyasi korxonalarining hozirgi texnologik qurollanganlik darajasini tavsiflaydi.

Yuqoridagi formulada nazarda tutilgan resurslar iqtisodiy tavsifi bo'yicha ikki asosiy turga turkumlanib, birinchi resurslar turkumi an'anaviy resurslar hisoblanib (asosiy vositalar, moddiy resurslar, ishchi kuchi) ular qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tashkil qilish jarayonidagi mehnat vositalari va predmetlarini o'zzida mujassamlashtiradi. Ikkinchi turkum resurslar noan'anaviy resurslar hisoblanib (axborot, innovatsiyalar), ular intensiv ishlab chiqarishni tashkiliy-iqtisodiy asoslarini mujassamlashtiradi va qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarishni texnologik modernizatsiyalashning asosiy omillaridan biri sifatida maydonga chiqadi. Ushbu resurslarni optimal shakllantirish va boshqarish tizimi qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash orqali milliy va global masshtabdagi raqobatbardoshlikni ta'minlaydi. Bunda resurs tejamkor zamonaviy mahsulot ishlab chiqarish uchun investitsiyalarni jalb qilishda yuqorida tilga olingan resurslarni alohida elementlarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan asosiy ishlab chiqarish fond-

2 Витун Е.Р. Сущность, критерий и факторы экономической эффективности сельскохозяйственного производства // Гродненский сельскохозяйственный институт, Гродно, 1993.-452 с.

3 Экономика предприятий и отраслей АПК. Учебное пособие/ В.С. Тонкович, Е.П. Кивейта, Л.Ф.Догиль и др. – Минск: Издательство Белорусского аграрного университета, 1996.- 320с.



larini modernizatsiyalashga investitsiyalarni jalb qilish, ularning texnik qurollanganlik darajasi bo'yicha yangi parklarni shakllantirish va yangi texniklar hisobiga ishlab chiqarishni intensivlashtirish ko'rsatkichlari sifatida asosiy fondlarni yangilanish koeffitsiyenti, fond sig'imi, fond qaytimi, asosiy fondlar rentabellik ko'rsatkichlarida belgilangan maqsadli parametrlarni olish hisobiga ta'minlanadi.

Qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarishda yangi navlarni sotib olish, patentlar va boshqa nomoddiy aktivlarga investitsiyalar texnologik taraqqiyotda muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining o'ziga xos jihatlaridan biri asosiy mahsulotning yillik yetishtirilishi, mavsumiy xarakterga egaligi bilan belgilanadi. Shuningdek, asosiy mahsulotni tabiiy iqlim sharoitlariga bog'liq holda ishlab chiqarish imkoniyatlari va yetishtirilgan mahsulotlarni realizatsiya qilish jarayonini tezlashtirish zarurligi tarmoqqa investitsiyalarni jalb qilishda resurs tejankor mahsulot ishlab chiqarish bilan birga mahsulotni istemolchilar talabining o'zgarib borishi sharoitiga asoslangan holda optimal saqlashning texnologik jarayonlarini modernizatsiyalashga yo'naltirilishi kerak. Ushbu jarayon qishloq xo'jaligi subyektlari aylanma ishlab chiqarish fondlariga investitsiyalarni jalb qilishning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa hozirgi sharoitda Respublikamizda amaldagi baho siyosatining holatida qishloq xo'jaligi tizimidagi asosiy mahsulotlarga davlat xaridlari tizimi sharoitidagi baholar paritetining buzilish holatida aylanma aktivlarga investitsiyalarni jalb qilish tizimini rag'batlantirishning bozor mexanizmlarini takomillashtirishga ehtiyoj tug'ilmoqda.

Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilishdagi fikrlarni umumlashtirish natijasida ta'kidlash joizki, iqtisodiyotning agrar sektori barqarorligini quyidagicha ko'rish mumkin:

- 1) ishlab chiqarilgan va sotiladigan mahsulot hajmi va sifatini oshirish;
- 2) iste'mol miqdorini tejash va ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishni optimallashtirish, ya'ni ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish;
- 3) xo'jalik faoliyati uchun avanslangan asosiy va aylanma mablag'lardan samarali foydalanish;
- 4) ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish.

Korxonalarning ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligining pasayishi, uning ishlab chiqarish quvvati tannarx darajasining oshishiga va natijada faoliyatning foyda bilan emas balki, zarar bilan yakunlanishiga olib keladi. Bunda, asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan operatsion faoliyatni takomillashtirish bilan birga hududdagi mavjud iqtisodiy resurslar, iqlim joylashuvi va mehnat resurslariga ham bog'liqdir.

Hududlar qishloq xo'jaligi sektori korxonalarning ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini tahlil qilish mehnat unumdorligi va kapital unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishning resurs sig'imini pasaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun xo'jalik ichidagi zaxiralarni to'liq jalb qilish kabi ko'rsatkichlari ham o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning xo'jalik ichidagi zaxiralari va samaradorlik ko'rsatkichlariga omillarning miqdoriy ta'siri aniqlash boshqaruv qarorlarini qabul qilishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu tizimli bosqichlar nafaqat alohida olingan xo'jalik subyektlari, balki, ular faoliyat olib borayotgan hududlar tarmoqlari tarkibidagi qishloq xo'jaligi tarmog'ida ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish samaradorligini baholashda ham asos bo'lishi mumkin.

Ushbu holatda texnik taraqqiyotni hisobga olish zarurdir, chunki bitta korxona darajasida ishlab chiqarishni boshqarishni baholashda bir xil hududning vaqt (vaqt qatorlari) bo'yicha xatti-harakatlarini tavsiflovchi ma'lumotlardan foydalaniladi. Nisbiy narxlar vaqt o'tishi bilan har xil bo'ladi va demak, ishlab chiqarishning alohida omillari xarajatlarning optimal kombinatsiyasi ham o'zgaradi. Vaqt qatorlarini qo'llashda asosiy muammolar texnologik taraqqiyot oqibatlaridan kelib chiqadi, buning natijasida ishlab chiqarish omillarining xarajat normalari, ular bir-birini almashtira oladigan nisbatlar va samaradorlik parametrlari o'zgaradi.

Mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan resurslar sifatida biz ishchilarning o'rtacha yillik soni (L), asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati (K) da ifodalangan asosiy vositalarning xarajatlari shaklida mehnat xarajatlari olamiz.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga kapital va mehnat sarfining ta'sirini Knut Uiksell tomonidan taklif qilingan hamda Charlz Kobb va Pol Duglas tomonidan tekshirilgan funksiya ya'ni Kobb-Duglas ishlab chiqarish funktsiyasi orqali ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Ushbu ishlab chiqarish funktsiyasi, bizning masalamizga muvofiq quyidagichadir:

$$Y = AK^{a_1} L^{a_2} e^{rt+\varepsilon} \quad (2)$$

Bu yerda:

A – texnik taraqqiyot koeffitsiyenti;



a_1, a_2 – qishloq xo'jaligidagi kapital va mehnat resurslarining elastikligi koeffitsiyenti;

t – vaqt;

r – qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mavjud texnik taraqqiyot natijasidagi ishlab chiqarilgan mahsulotning o'sish sur'ati.

a_1, a_2 – parametrlar interpretatsiyasi uchun logarifmik omil sifatida elastiklik tushunchasini kiritamiz. Ya'ni, a_1 – asosiy fondlarga investitsiyalar o'zgarishiga nisbatan yalpi ishlab chiqarish o'sishining elastikligi; a_2 – mehnat resurslariga xarajatlar o'zgarishiga nisbatan yalpi ishlab chiqarish o'sishining elastikligi.

Shuningdek, ishlab chiqarish funksiyasi yordamida yana ishlab chiqarish masshtabi va samaradorligini ifodalash mumkin. Buni quyidagi tenglamalar funksiyasi orqali ifodalash mumkin:

Agar,

$$a_1 + a_2 > 1 \quad (3)$$

Demak, yalpi ishlab chiqarish hajmi qiymat ekvivalentida ishlab chiqarish omillariga nisbatan yuqori o'sish tendensiyasi kuzatiladi. Bunda, ishlab chiqarish masshtabining kengayishi xarajatlarni iqtisod qilish hisobiga intensiv o'qish kursini ta'minlaydi.

Agar,

$$a_1 + a_2 < 1 \quad (4)$$

Demak, yalpi ishlab chiqarish hajmi qiymat ekvivalentida ishlab chiqarish omillariga nisbatan past sur'atdagi o'sish tendensiyasi kuzatiladi. Bunda ishlab chiqarish masshtabi o'sishi samaradorlikning pasaytiruvchi ta'sirida bo'ladi. Bunda sharoitda qishloq xo'jaligi investitsion faolligini oshirish, unga investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lmaydi.

Agar,

$$a_1 + a_2 = 1 \quad (5)$$

Demak, samaradorlik ishlab chiqarish masshtabiga bog'liq bo'lmaydi. Ushbu holat qishloq xo'jaligida ekstensiv iqtisodiy o'sish suratidagi o'sishini ifodalaydi. Ushbu holatda ham boshqa tarmoqlardagi iqtisodiy o'sishning intensiv kursi sharoitida qishloq xo'jaligi investitsion jozibadorligi past darajada qoladi.

TAHLIL NATIJALARI

Respublikamiz hududlari orasida qishloq xo'jaligi bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishda drayver hududlardan biri bo'lgan Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligi tarmog'i misolida investitsiyalar samaradorligini yalpi ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini ko'rib chiqamiz.

1-jadval: Qashqadaryo hudud iqtisodiyotidagi qishloq xo'jaligi tarmog'ining samaradorlik ko'rsatkichlari

Yillar	Y (YaQQ)	K	L	t	lnY	lnK	lnL
2012	5620,2	51561,47	90,1	1	3,750	4,712	4,5
2013	6563,2	74581,82	88,7	2	3,817	4,873	4,49
2014	7899,3	84938,71	87,1	3	3,898	4,929	4,47
2015	9320,1	38672,61	83,1	4	3,969	4,587	4,42
2016	11121,0	23314,47	83,4	5	4,046	4,368	4,42
2017	14761,6	39575,34	82,5	6	4,169	4,597	4,41
2018	17685,8	453482,1	70,9	7	4,248	5,657	4,26
2019	20415,1	537239,5	68,6	8	4,310	5,730	4,23
2020	24510,3	597812,2	67,5	9	4,389	5,777	4,21
2021	29352,8	652284,4	66,2	10	4,468	5,814	4,19

Yillik ma'lumotlar hududiy iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi tarmog'i tizimida resurslardan foydalanish samaradorligini ekonometrik tahlil qilish uchun Kobb-Duglasning ishlab chiqarish funksiyasi asosida 2015-2021-yillar bo'yicha statistik ma'lumotlar massividan foydalanamiz.



Ishlab chiqarish funksiyasi parametrlarini eng kichik kvadratlar usulidan foydalangan holda hisoblaymiz.

$$\ln Y = \ln A + a_1 \ln K + a_2 \ln L + rt + \varepsilon \quad (6)$$

Qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati sarflangan mehnat xarajatlarining o'zgarishiga nisbatan elastikligi 9,31%, kapital xarajatlarning o'zgarishiga nisbatan elastikligi esa 1,97%ni tashkil qiladi. Bu ishlab chiqarish omillaridan intensiv foydalanishdan dalolat beradi.

$$\ln Y = -73,1 + 1,97 \ln K + 9,31 \ln L + 0,72t + \varepsilon \quad (7)$$

(1,99) (3,89) (3,22)

Tahlil qilinayotgan davrda ko'rib chiqilayotgan omillarning umumiy unumdorligi oshdi, shu bilan birga o'rtacha xarajatlari kamaydi, chunki ishlab chiqarish funksiyasining elastiklik koeffitsiyentlari yig'indisi 1 dan katta. Shuningdek, Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi tenglamasi texnik taraqqiyotni hisobiga ishlab chiqarishning o'sish sur'ati yiliga 0,891% ni tashkil qilganligini ko'rsatadi. $r = 0,89$ qiymatining 0 dan bir oz farq qilishi ko'rib chiqilayotgan davrda omillarning umumiy unumdorligining o'sish sur'ati past bo'lganligini tasdiqlaydi.

2-jadval: Korrelyatsion-regression tahlilning natijalari

Yakuniy xulosalar						
Regression statistika						
Ko'p omilli R	0,913					
R-kvadrat	0,805					
Normallashtirilgan R-kvadrat	0,708					
Standart xatolik	0,499					
Kuzatuvlar soni	10					
Dispersion tahlil						
	Df	SS	MS	F	F-ahamiyatlilik	
Regressiya	3	6,175	2,058	8,263	0,015	
Qoldiq	6	1,495	0,249			
Jami	9	7,669				
	Koef-lar	St. xatolik	t-stat.	P-prob.		
lnY	-73,146	20,174	-4,025	0,007		
lnK	1,973	1,179	2,097	0,081		
lnL	9,314	2,940	4,907	0,003		
T	0,891	0,028	3,338	0,029		

Multiplikativ ishlab chiqarish funksiyasi bo'yicha olingan elastiklik koeffitsiyenti ahamiyatli hisoblanadi. Ko'p omilli korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,913 ga teng bo'lib, natijaviy ko'rsatkichga regressiya tenglamasiga kiritilgan ta'sir etuvchi omillar o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Dispersiyaning izohlangan ulushi 0,81 ga teng bo'lib, bu shuni tasdiqlaydiki, Qishloq xo'jaligida yaratilgan YAHMning fizik hajmini o'rtacha yillik indeksidagi o'zgarishlarning 81% regressiya tenglamasiga kiritilgan omil xususiyatlarining o'zgarishi bilan bog'liqdir. Modeldagi tasodifiy va hisobga olinmagan omillarning ta'siri bilan izohlanadigan qoldiq o'zgarishlar darajasi 19% ni tashkil qiladi.

XULOSALAR

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilishi mumkinki, viloyat iqtisodiyotining qishloq xo'jaligi tarmog'idagi ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atiga "kapital resurslar" omiliga nisbatan "mehnat resurslari" omilining sezilarli ta'siri kuzatilmoqda.

Qashqadaryo viloyati iqtisodiyoti qishloq xo'jaligi tarmog'i ishlab chiqarish faoliyati samaradorligi va ularga investitsiyalarni jalb qilish samaradorligining tahlili shuni tasdiqlaydiki, hudud qishloq xo'jaligi tarmog'ini intensiv rivojlantirish va unda kapitaldan foydalanish unumdorligini oshirishga yo'naltirilgan islohotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.



Shuni ta'kidlash kerakki, boshqa tarmoqlar kabi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida faol investitsion siyosatga yo'naltirilgan menejment tizimi samaradorligini yuksaltirish murakkab vazifa bo'lib, unda belgilangan maqsadlarga erishish yahlit ishlab chiqarish omillarini kompleks texnik va ijtimoiy-iqtisodiy baholamasdan hal yetib bo'lmaydi.

Shunday qilib, ishlab chiqarish funksiyalari ishlab chiqarish hajmining oshishi bilan ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini har tomonlama baholashga, shuningdek, ularning kutilayotgan qiymatlari asosida ishlab chiqarish hajmini prognoz qilishga imkon beradi.

Foydalangan adabiyotlar royxati:

1. Блауг М. Кенэ, Франсуа // 100 великих экономистов до Кейнса – Great Economists before Keynes: An introduction to the lives & works of one hundred great economists of the past. – СПб.: Экономикс, 2008.
2. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Эксмо. – 2007.
3. Общая теория занятости, процента и денег / Дж. М. Кейнс. – М.: Прогресс, – 1978.
4. Оболенский К.П. Экономическая эффективность сельскохозяйственного производства. Теория и практика. – М.: Экономика, 1974. – 192 с.
5. Витун Е.Р. Сущность, критерий и факторы экономической эффективности сельскохозяйственного производства // Гродненский сельскохозяйственный институт. – Гродно, 1993. – 452 с.
6. Экономика предприятий и отраслей АПК. Учебное пособие/ В.С. Тонкович, Е.П. Кивейта, Л.Ф.Догиль и др. – Минск: Издательство Белорусского аграрного университета. –1996. – 320 с.
7. Bekmurodov A.Sh. va boshq. Global iqtisodiy inqiroz davrida O'zbekiston moliya sektori: muammolar, natijalar va istiqbollari. Ilmiy monografiya. – T.: Moliya. – 2013.
8. Mustafakulov Sh.E. O'zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSC) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: O'z.R.Bank moliya akademiyasi. 2017-y.
9. Abduraximova S.A. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solish. I.f.n. diss. – T.: TDIU. – 2012;
10. Valiyev B.B. O'zbekistonda hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda investitsiya salohiyatini oshirish mexanizmi. 08.00.12 – "Mintaqaviy iqtisodiyot" Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of science) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent – 2021.
11. Qashqadaryo viloyati hokimligi iqtisodiyot boshqarmasi statistik to'plamlari.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.